

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-son)**



**IJTIMOY FANLAR  
SOCIAL STUDIES**

UO‘K: 94 (930.24)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3427-7801>

## **KUSHONSHAHR DAVLATI TARIXIY GEOGRAFIYASI**

**Xoliyarov To‘lqinjon Chorshanbiyevich**  
*Termiz davlat muhandislik va agrateknologiyalar universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD)*  
*E-mail: [txoliyarov@mail.ru](mailto:txoliyarov@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Kushon podsholigining tarix sahnasidan ketishi milodiy III asrning 40–50-yillarida sodir bo‘lganligi va shu davrdan e’tiboran Baqtriya yozma manbalarda Kushonshahr deb nomlanganligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Baqtriya, Parfiya, Kushon podsholigi, Sosoniylar davlati, Kushonshoh, Koshono shohonoshoho, ozorko Koshono shoho, “Zardo‘sht Ka’basi”, Kushanshahr, Toxariston.

### **HISTORICAL GEOGRAPHY OF THE KUSHONSHAHR STATE**

**Abstract.** This article is based on the fact that the Kushan Empire disappeared from the historical scene in the 40s–50s of the 3rd century AD, and since then Bactria has been called Kushanshahr in written sources.

**Keywords:** Bactria, Parthia, Kushan Empire, Sassanid Empire, Kushan Shah, Kushan Shah, Ozorko Kushan Shah, “Zoroastrian Kaaba”, Kushanshahr, Tokharistan.

### **ИСТОРИЧЕСКАЯ ГЕОГРАФИЯ ГОСУДАРСТВА КУШОНШАХР**

**Абстрактный.** В основе статьи лежит предположение, что Кушанская империя исчезла с исторической сцены в 40–50-х годах III в. н. э. и с этого времени Бактрия в письменных источниках именуется Кушаншехром.

**Ключевые слова:** Бактрия, Парфия, Кушанская империя, Сасанидская империя, Кушан-шах, Кушан-шах, Озорко Кушан-шах, «Кааба Зороастра», Кушаншехр, Токаристан.

**KIRISH** Ma’lumki, O‘zbekiston hududi eng qadimiy davlatchilik mavjud bo‘lgan hududlardan biri sanaladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz kelajagi haqida gapirar ekan: “Ishonchim komil, xalqimiz yaqin istiqbolda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va

siyosatida o‘zining munosib o‘rnini egallaydi. Chunki jahon sivilizatsiyasida bizning qadimiy va mustahkam ildizlarimiz bor. Bu – qadimiy va shonli tariximiz, bebaho qadriyat va an’analarimiz, urf-odatlarimiz, milliy o‘zligimizdir. Men ana shu teran ildizlarimizda yurtni, millatni birlashtiradigan buyuk bir g‘oyani ko‘raman.” – [1, Б. 8] degan fikrni bildirgan. Ozarbayjonliklar, o‘zbeklar va qozoqlar kabi millatlar oktabr inqilobiga qadar bo‘lmaganligini da’vo qilayotgan tashqi siyosiy kuchlarning tahdidiga javoban shuni aytish kerakki, bizning davlatchilik tariximiz O‘zbekiston janubida tarqalgan so‘nggi bronza davri o‘troq-dehqonchilik madaniyatiga borib taqaladi [2, Б. 24]. Tarixiy O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi davlat birlashmalaridan biri Qadimgi Baqtriya hisoblanadi. Baqtriya Markaziy Osiyoning janubida, Amudaryoning o‘rta oqimida uning ikkala sohili bo‘ylab joylashgan va Panj, Vaxsh, Kofirnihon, Surxon, Ko‘kcha, Qunduz irmoqlari havzasidagi qadimgi davlatdir [3, Б. 10]. Tarixga qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri sifatida kirgan bu davlat Baqtriya, Baqtriyona, Baxtarzamin, Kushonshahr, Toxariston nomlari bilan atalgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA** Mazkur maqolani yozishda Prezident Shavkat Mirziyoyev asaridan, ko‘p jildlik “O‘zbekiston tarixi” xrestomatiyasidan, “Zardo‘sht Ka‘basi” epigrafik yozuvidan, shuningdek, turli davrlarda nashr etilgan olimlar tadqiqotlaridan foydalanildi.


Maqolada ilmiylik, xolislik tamoyillari asosida epigragik, yozma manbalar ma’lumotlari va arxeologik materiallar qiyosiy o‘rganilib umumlashtirilgan holatda tahlil etildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Ma’lumki, milodiy 226-yilga kelib kushonlar saltanatidan g‘arbda – Parfiya davlatining o‘rnida paydo bo‘lgan Sosoniylar davlati siyosat maydoniga chiqdi [4, Б. 17]. Bu davlat Parfiyaga qarar edi ammo podsho Ardasher I davrida mustaqil davlat sifatida faoliyat ko‘rsatishga intildi va kushonlar davlatiga xavf sola boshladi. Kushonlar bilan sosoniylar o‘rtasida jang bo‘lishi tabiiy edi. 242–243-yillarda bo‘lib o‘tgan ikki o‘rtadagi jangda sosoniy Shopur I ning qo‘sini kushonlarni mag‘lubiyatga uchratdi. Shundan so‘ng sosoniylar hukmdorlari Sharqiy Turkiston hududlarida “Kushonshoh” unvoniga ega bo‘ldilar. 252-yilda esa ular yana “Kushon shohlarining ulug‘ shohi” degan unvonga ega bo‘ldilar. Bu yillarga kelib kushonlar Hindistondagi yerlarning ham katta qismidan judo bo‘ldilar. Bu davrga kelib kushonlar bilan sosoniylar o‘rtasidagi munosabatlar yana keskinlashdi. Shopur II (309-379) xioniy larga zarba berib, Shimoliy Baqtriya yerlarini bosib oladi.

Kushonshahr dastlab Sosoniylar sultanatining Kobul va Peshovar vodiylari orasidagi hududni o‘z ichiga olgan viloyati bo‘lgan. Kushanshahr hududi markazi Toxariston bo‘lib, Termizdan Peshovargacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Sosoniylar hukmronligining Kushonshahrda o‘rnatalishi Markaziy Osiyodagi savdo yo‘llarini nazorat qilish imkonini bergen. Ushbu hududda Kushon-Sosoniylar hokimiyatni boshqarib, Hindiston bilan savdo aloqalarining muhimligi sababli Kushon namunasi asosida tangalar chiqargan.




[Ardashir I Kushonshoh \(230–245\)](#)




[Pero‘z I Kushonshoh \(245–275\)](#)



[Xo‘rmuzd I Kushonshoh \(275–300\)](#)



[Xo‘rmuzd II Kushonshoh \(300–303\)](#)



[Pero‘z II Kushonshoh \(303–330\)](#)



[Varaxron Kushonshoh \(330-365\)](#)

Kushonshahr G‘arbdagi Eranshahrga o‘xshash bo‘lib, u Sosoniylar imperiyasining beshigi hisoblangan. Sosoniylar hukmronligi Kushonshahrda Kidariylar va undan so‘ng Eftaliylar tomonidan hudud bosib olingach yakun topgan [5].



**2-rasm:** Sosoniylar sultanati sharqida joylashgan Kushanshahr.

O‘rta fors tilidagi muhim epigrafik manbalardan biri bo‘lmish “Zardo‘sht Ka‘basi” deb atalmish ibodatxonada o‘yib yozilgan bitiklar Sosoniylar podshohi Shopur I ning podshohligi davriga mansubdir. Ardashir I ning vorisi Shopur I davrida Sosoniylar davlati yuksak qudratga erishgan. “Zardo‘sht Ka‘basi” ning ilmiy qimmati va ahamiyati, avvalo shundaki, ko‘pchilik manbalar ancha avval bo‘lib o‘tgan tarixiy hodisalarining aks etishini o‘z ichiga olgan bo‘lsa va buning ustiga, ular o‘sha hodisalarni, balki buzib ko‘rsatgan bo‘lsa, ilk sosoniy yozuvlari (shu jumladan, Shopur I yozushi) hodisalarni aynan o‘z vaqtida aks ettirgan.


Mazkur bitik Shopur I ning podshohlik davridagi Eronshahr chegaralari haqida hikoya qiladi. Shuni ham inobatga olish kerakki, har bir holda so‘z nafaqat biron hududning aniq chegaralari haqida, balki Sosoniylar hukmdorlarning mulkiga qisman kirgan yoki ularning ta’siri ostida bo‘lgan yoxud ularga bog‘liq viloyatlar haqida ketishi mumkin. Ayni holda, bizni Shopur I yozuvida Markaziy Osiyoga (masalan, Marv, Sug‘d, Kushonlar kabi) butunlay yoki qisman taalluqli geografik va hududiy ko‘rsatmalar borligi, xususan, ushbu hujjatda o‘z chegaralari ichida shahar ko‘rinishidagi maskani ham bo‘lgan Choch (Shosh) viloyatining nomi qayd etilgani qiziqtiradi. Bu maskanning tarixi ushbu viloyatning markazi bo‘lgan Toshkent shahri tarixi bilan uzviy bog‘liqdir [6].

Kushon shahri, Sug‘d va Shoshning Shopur I ga butunlay tobe bo‘lganligi haqida aniq dalolatlar yo‘q. V.G.Lukoninning fikriga ko‘ra, yozuvda Kushonshahr va Kash, Sug‘d, Shoshgacha bo‘lgan yerkirada nisbatan “ularning ustidan hukmronlik da‘vosi” gina bayon etilgan. Lekin keyinchalik u “shahanshohning otlari va odamlari”, ya’ni Sosoniylar qo‘shinlari Kushon shahrida 262-yilgacha, ya’ni “Zardusht ka‘basi”dagi yozuvlar bitilishidan avval, aniqrog‘i (V.G.Lukonin ga ko‘ra), 244 va 249-yillar orasida bo‘lgan, degan ma’lumotga

tayangan tadqiqotchilar fikriga qo‘shilgan. Kushon shahrining Eronga bog‘liq bo‘lganligi ayni shu aytilgan sabablar bilan izohlanadi. B.Ya.Staviskiyning [7, C. 17] fikricha, so‘z kushonlarning harbiy mag‘lubiyati haqida ketgan bo‘lishi mumkin, undan keyin ular go‘yo Shopur I ga bir necha yil davomida o‘lpon yoki bir yo‘la jarima to‘lashga yoki, hatto biror muddat uning ustunligini tan olishga majbur bo‘lganlar. Choch (Shosh) viloyatining tilga olinishiga kelsak, yozuvning ko‘rsatishicha (“Shosh tog‘larigacha”), “Zardusht ka‘basi” yozuvlari bitilgan davrda Shosh Sosoniylardan o‘z mustaqilligini saqlab turgan. “Men – Mazdaga ibodat qiluvchi shoh Shopur, Eron va g‘ayri Eronning shahanshohi, ilohlardan kelib chiquvchi, Mazdaga ibodat qiluvchi va ilohlardan kelib chiquvchi Eron shahanshohi Ardashirning o‘g‘li, hukmron shoh Popakonning nevarasi. Men - Eronshahr hukmdori. Men mana bu shahr (O‘rta fors tilida “shahr” deganda mamlakat nazarda tutiladi) larga hukmronlik qilaman: Fors, Partava, Quziston, Meshan (yoki Meshun - ilk Sosoniylar davrida Isfahan yaqinidagi viloyat), Ossuriya, Adiabena (yoki Aruastan - ilk Sosoniylar davrida Shimoliy Ossuriya), Arabiston, Aturpatak (Ozarbayjonning qadimgi nomi), Armaniston, Vrshan (yunoncha Iberiya, ya’ni Gurjiston), Sikan (yoki Sisakan – qadimgi Armanistonning viloyatlaridan biri Syunik nomining forschada atalishi), Ardan (yunoncha Albaniya, ya’ni Kavkaz Albaniyasi, o‘rta asrlarda Arron deb atalgan, hozirgi Shimoliy Ozarbayjon), Balasakan (Kavkaz Albaniyasidagi qadimgi nohiya, o‘rta asrlarda Baylakan va Baylaqon deb atalgan, Shimoliy Ozarbayjonning Kura daryosiga tutash yerlari), to Qap tog‘lari (o‘rta forschada Qapko‘h, o‘rta asrlarda Ko‘hi Qof, ya’ni Kavkaz tog‘lari. Kavkaz atamasi aslida osetincha, ya’ni oslar tilidagi Qafqazi (Qof togi) nomining yevropacha talaffuzidir), va Alan dovoniga (Katta Kavkazdagagi tog‘ dovoni, hozirgi Shimoliy orasidagi, Gurjiston bilan Rusiya chegarasidagi tog‘ yo‘li) qadar va butun Parishaxvar tog‘ tizmasigacha (qadimgi forslarning dunyoqarashi bo‘yicha, Eronni shimol tarafdan to‘sib turgan tog‘ tizmasi), Mad (yoki Maday - tarixiy Midiya, ilk Sosoniylar davrida Hamadon atroflari), Vrkan (Kaspiy denshzining janubi-sharqidagi Gurgon viloyati va shaharining Arshakiylar davridash nomi, Ariyaning bir qismi deb qaralgan), Marv, Xariv (yoki Xdrayva - hozirgi Hirat va uning viloyati) va butun Aparshar (Xurosondat Abarshahrning qadimgi nomi), Kirmon, Sakaston, Turon (aslida turklarning yeri demakdir. Lekin bu yerda Sosoniylar davlatining sharqidagi kichik nohiya nazarda tutiladi) Makuron (hozirgi Pokiston va Eronga tutash Mekron o‘lkasining qadimgi nomi), Partan (Afg‘onistonning janubi-sharqidagi qadimgi viloyat), Hindiston, Kushonshahr (V.G.Lukoninning fikricha, bu yerda Eron emas, Kushonshahr chegaralarini tavsif etib bo‘lmaydi [8, C. 192]), Pashkabur (hozirgi Peshovar bo‘lsa kerak) va to Kash (Ba’zi fikrlarga ko‘ra, Kashkar - Xurosondagi viloyat, ammo Kesh ham bo‘lishi mumkin), Sug‘d, Shosh chegaralarigacha, Dengizning boshqa sohilidan esa Mazunxshatr va barcha mana shu ko‘p sonli shahrlar va shahrdorlar va viloyatlar hukmdorlari - hammasi bizga o‘lpon to‘lar va itoat etar edilar”. Demak, “Zardusht ka‘basi”dagi yozuvlarida Kushonshahr unga bo‘ysunuvchi o‘lka sifatida tilga olingan.

“Zardusht ka‘basi”ning tomi katta hajmdagi yassi tosh plitalar bilan yopilib, devorlarida deraza o‘rnida ochiq joylar qoldirilgan. Eron, Kavkaz va O‘rta Osiyo aholisi uylariga o‘xshatib

qurilgan burjning devorlariga pahlaviy, Parfiya va yunon yozuvlarida Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan mamlakatlar, bu joyga keltirilgan hadyalar ro‘yxati milodiy 262-yilda yozilgan. Jumladan, Zardo‘sht ka’basida shunday deyilgan: “Men janob Eronshohiman, men quyidagi shaharlar egasiman: Kushonshahrdan Pashkiburgacha, undan keyin Qos (Kesh), So‘g‘d va Shoshgacha. Bularning barchasi ko‘plab shohliklar xo‘jayinlari va hukmdorlari menga soliq to‘lovchilar va itoat qiluvchilardir” [9].



**2-rasm:** Zardo‘sht ka’basi.

Zardo‘sht ka’basi o‘z nomini, ehtimol, XIV asrda butun Forsdagining xarobalar Qur’oni karim yoki Shohnomadagi shaxslar bilan bog‘langan paytda olgan. Bu nom zardo‘shtiyarning ziyoratgohi bo‘lganligini bildirmaydi va bu yerga ziyorat qilinganligi haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Ka’ba XVII asrda Naqshi Rustamga tashrif buyurgan G‘arb sayohatchilarining asarlarida tasvirlangan.

**XULOSA.** Umuman olganda qadimgi manbalarda Baqtriya deb atalgan hududlar kushonlar davridan boshlab to eftaliylar davrigacha “kushonlar mamlakati” yoki Kushanshahr deb atalgan. Kushon podsholigining Sosoniylar Eroni tomonidan egallanishi hamda kushon-sosoniylar tangalarining zarb etila boshlanishini tadqiqotchilar turli davrlar bilan belgilashgan. Masalan, E.Hersfeld[10, P. 65], A.D.H.Bivar[11; 12] milodiy III asr, R.Gyobl[13, P. 153] IV asr boshlari, V.G.Lukonin[14] IV asr ikkinchi yarmi, R.Girshman[15] IV asrning to‘rtinchi choragi, V.M.Masson[16] III asrning oxiri bilan davrlashtirgan. So‘nggi davrlarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida to‘plangan epigrafik, numizmatik, arxeologik va boshqa turdagini yozma va ashyoviy manbalar asosida Kushanshahrni Shopur I (241–272) III asrning ikkinchi yarmida zabit etganligi aniqlandi [17]. Ma’lumki, Sosoniylar podsholari bosib olingan viloyatlarni o‘z farzandlariga taqsimlab berishgan va ular o‘z viloyatlarining hokimi hisoblanib, o‘z nomlaridan tangalar zarb ettirishgan. Kushanshahrni ham sosoniylar shahzodalar boshqarib, o‘rta forscha ozorko Koshono shohonoshoho yoki ozorko Koshono shoh – Kushon buyuk shohlar shohi yoki Kushonning buyuk shohi maqomi bilan tangalar zarb qilishgan[18] Kushanshahrni shahrab lavozimidagi amaldor Balx shahridan turib boshqargan[19]. O‘rta Osiyoga xioniylar va eftaliylar kirib kelguniga qadar Kushanshahr Sosoniylar Eroni tasarrufida bo‘lgan. Sosoniylar bilan bog‘liq tanga zarb qilish faoliyati Taxsila shahrida faqat Shopur II

(309–379-yillar) va Shopur III (383–388-yillar) davridan boshlab paydo bo‘lgan bo‘lib, bu hodisa Ammian Marsellin tomonidan tasvirlangan Shopur II ning “xioniylar va kushonlarga qarshi” olib borgan urushlari (350–358-yillar) natijasida hududlarning kengayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 383-yildan Kushanshahr hududlari Toxariston deb nomlana boshlaydi.

Xullas, Kushon imperiyasining tarix sahnasidan ketishi IV asr oxirida emas, balki III asrning 40–50-yillarida sodir bo‘lgan, Baqtriya o‘lkasi shu vaqtidan boshlab yozma manbalarda Kushanshahr deb yuritila boshlangan.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Мирзиёев Шавкат Миромонович. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2024. – 560 б.
2. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи) VIII жилд, (Ўзбекистон тарихи ва манбалари). – Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2023. – 455 б.
3. Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. II жилд, (Ўзбекистон тарихи ва манбалари). Ўзбекистон энг қадимги ва қадимги даврларда (Палеолит давридан милодий V асрغا) – Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2023. – 455 б.
4. Пидаев Ш. Тармита – Термиз 1220 йилгача: шаҳарнинг келиб чиқиши ва тадрижий тараққиёти // Термиз – буюк йўллар чорраҳасидаги қўхна ва янги шаҳар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 17.
5. Brunner, Christopher (1983). “Geographical and Administrative divisions: Settlements and Economy”. *The Cambridge History of Iran: The Seleucid, Parthian, and Sasanian periods (2)*. Cambridge: Cambridge University Press. Pp. 747-778. ISBN 978-0-521-24693-4.
6. Луконин В.Г. Завоевания Сасанидов на Востоке и проблема кушанской абсолютной хронологии // ВДИ, 1969, № 2.
7. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия: проблемы истории и культуры.-Москва, 1977. – С. 134.
8. Ставиский Б.Я. О северных границах кушанского государства // ВДИ, 1961, №1. – С. 192.
9. Third century Iran, Sapor and Kartir / by Martin Sprengling; prepared and distributed at the Oriental Institute, University of Chicago, 1953. – 114 p.
10. Hersfeld E. Kushano-Sasanian Coins. – MASI. №38, Calcutta. 1930. – P. 65.
11. Bivar A.D.H. The Kushano-Sasanian Coin Series. – JNSI. Vol. 18, I. 1956. – P. 13-42.
12. Bivar A.D.H. Kushan and kushano sasanian seals and kushano - sasanian coins. – London, 1968. – 25 p.
13. Göbl.R, System und Chronologie der Münzprägung des Kušānreiches – Vienna: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften, 1984. – P. 153.

14. Луконин В.Г. Кушано-сасанидские монеты // Эпиграфика Востока. Вып. XVIII. – Л.: 1967. – С. 16-33.
15. Ghirshman R. Iran dessa l'Islam. – Paris, 1951. 330 p.
16. Массон В.М. Кушанскауа эпоха в древней истории Узбекистана (Вопросы периодизации и хронологии). // ОНУ, 1981, №4. – С. 37-38.
17. Никитин А.Б. Сасанидский Кушаншахр // Проблемы истории, филологии, культуры. 2010. №1(27). – С.115-121.
18. Луконин В.Г.Культура Сасанидского Ирана. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1969. – С. 135-138, 163-175.
19. Никитин А.Б. Сасанидский сатрап Балха // Византия и Ближний Восток. – СПб., 1994. – С. 54-57.